

**KALAMUSHDA EKSPERIMENTAL ANAFILAKSIYA MODELINI  
YARATISH VA FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI  
TADQIQ QILISH.**

*1-kurs magistranti Sayidova Nilufar Norboy qizi*

*Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) Axmedova Gulsara Bahodir qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

**Anotatsiya:** Kalamushlarda anafilaksiya modelini yaratish orqali organizmdagi fiziologik o'zgarishlarni aniqlash. Anafilaksiya patologiyasining mexanizmlarini chuqurroq tushunishga va uning oldini olish hamda davolash usullarini takomillashtirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlari:** anafilaksiya, kalamush, model, IgE, fiziologik ko'rsatkichlar, davolash, tez tibbiy yordam.

Anafilaksiya – bu immun tizimining o'ta kuchaygan javobi natijasida yuzaga keladigan og'ir va hayot uchun xavfli allergik reaktsiya. Olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab hozirgi kasallanish yiliga 100 000 aholiga taxminan 46 kishi to'g'ri kelar ekan. Organizmda anafilaksiya holati ro'y berganda turli xil dori moddalarini iste'mol qilmaslik, tez tibbiy yordamni chaqirishlik kerak. Aks holda anafilaktik shok ro'y berishi mumkin. Ushbu tadqiqotning maqsadi kalamushlarda eksperimental anafilaksiya modelini yaratish va uning turli fiziologik ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganishdir. Bu eksperimental model, nafaqat anafilaksiyaning asosiy mexanizmlarini tushunish, balki yangi davolash strategiyalarini ishlab chiqish uchun ham muhimdir.

Tadqiqot davomida, kalamushlarda IgE ko'payishiga xizmat qiluvchi qo'zg'atuvchilar oshiriladi va keyinchalik IgE antigeniga ta'sir qilingandan so'ng arterial bosim, yurak tezligi, nafas olish tezligi va qondagi gormonlar darajasi kabi fiziologik ko'rsatkichlar kuzatiladi. Bu ko'rsatkichlar anafilaksiyaning turli

bosqichlarida qanday o'zgarishini aniqlash uchun tahlil qilinadi. Shuningdek, kalamushlar tanasidagi immun javob va hujayralar darajasidagi o'zgarishlar ham o'rganiladi.

Bajarilayotgan ishlarning bir qismidan shuni bilish mumkinki, anafilaksiyaning rivojlanish bosqichlari va fiziologik ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Bu bog'liqlik, ayniqsa, yangi farmakologik vositalarni sinovdan o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Natijalar shuni ko'rsatadiki, anafilaksiyaning rivojlanishida ma'lum gormonlar va biologik markerlar sezilarli darajada o'zgaradi.

Ushbu model yordamida anafilaksiya bilan bog'liq bo'lgan klinik ko'rinishlarning turli jihatlarini o'rganish va yanada samarali davolash usullarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Tadqiqotlar, anafilaksiya bo'yicha ilg'or bilimlarni oshirish va anafilaksiyaning oldini olish va davolash usullarini takomillashtirishga katta yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Adkinson, N. F., et al. (2013). Middleton's Allergy: Principles and Practice. 8th Edition.
2. Sampson, H. A., et al. (2006). Second symposium on the definition and management of anaphylaxis: Summary report – Second National Institute of Allergy and Infectious Disease/Food Allergy and Anaphylaxis Network symposium. Journal of Allergy and Clinical Immunology, 117(2), 391-397.
3. Simons, F. E. R., & Simons, K. J. (2010). Epinephrine and its use in anaphylaxis: current issues. Current Opinion in Allergy and Clinical Immunology, 10(4), 354-361.
4. Lieberman, P., et al. (2010). The diagnosis and management of anaphylaxis practice parameter: 2010 update. Journal of Allergy and Clinical Immunology, 126(3), 477-480.
5. Brown, S. G. A. (2004). Clinical features and severity grading of anaphylaxis. Journal of Allergy and Clinical Immunology, 114(2), 371-376.